

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/27.02.2020.F.72.08 RAQAMLI ILMIY KENGASH

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

AXMEDOVA DILBAR BO‘RONOVNA

XOTIN-QIZLAR TADBIRKORLIGINI RIVOJLANTIRISHNING
IJTIMOIIY-FALSAFIY MASALALARI

09.00.04 – Ijtimoiy falsafa

Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Buxoro – 2023

**Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертация доктора философии (PhD)
по философским наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD)
on philosophical sciences**

Axmedova Dilbar Bo'ronovna

Xotin-qizlar tadbirkorligini rivojlantirishning
ijtimoiy-falsafiy masalalari 3

Ахмедова Дилбар Бурановна

Социально-философские проблемы развития
женского предпринимательства 23

Axmedova Dilbar Buranovna

Socio-philosophical problems of the development
of women's entrepreneurship..... 45

E'lon qilingan ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ
List of published works 51

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/27.02.2020.F.72.08 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

AXMEDOVA DILBAR BO‘RONOVNA

**XOTIN-QIZLAR TADBIRKORLIGINI RIVOJLANTIRISHNING
IJTIMOIY-FALSAFIY MASALALARI**

09.00.04 – Ijtimoiy falsafa

**Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Buxoro – 2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.2.PhD/Fal735 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Buxoro davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.buxdu.uz) va "Ziyonet" Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Huseynova Abera Amanovna
falsafa fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Yaxshilikov Jo'raboy Yaxshilikovich
falsafa fanlari doktori, professor

Nazarov Qiyom Normerzayevich
falsafa fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Qarshi davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/27.02.2020.F.72.08 raqamli ilmiy kengashning 2023 yil "12" may soat 10.00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 200114, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (65) 221-29-14; faks: (65) 221-57-27, e-mail: buxdu_rektor@buxdu.uz)

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (1454 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 200114, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (65) 221-25-87.)

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil "1" may kuni tarqatildi.
(2023-yil "29" aprel dagi 1 raqamli reyestr bayonnomasi.)



Navro'zova G. N.
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash raisi,
falsafa fanlari doktori, professor

Sharipov A.Z.
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash kotibi,
falsafa fanlari doktori, professor

SK3
Salomova H.Yu.
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi,
falsafa fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda sodir bo'layotgan o'zgarishlar, globallashuv jarayonlari inson omilini yanada faollashuvini, hayotga turfa yangiliklarning kirib kelishi esa zamonaviy ehtiyojlarning ortishiga, oilaviy mehnat qilish ko'nikmasini shakllantirishni, xotin-qizlarning mamlakat rivojiga hissa qo'shish, farovon turmush kechirishiga zamin yaratishni taqozo etmoqda. Jamiyatda ayollar faolligini oshirish, axborot texnologiyalari hamda ommaviy kommunikatsiya vositalari imkoniyatlari asosida tadbirkorlik faoliyatining turli sohalarini rivojlantirish, mulkdorlik madaniyatini shakllantirish, moddiy va ma'naviy resurslardan unumli foydalanishni talab qilmoqda. Ayniqsa, xotin-qizlar tadbirkorligini rivojlantirishda kasbiy komillik, maqsadlilik, ilg'or tajribalarni o'zlashtirishga tayyorlik ko'nikmalarini shakllantirishning ijtimoiy-antropologik xususiyatlarini ochib berish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Jahon ilm-fani va ilmiy tadqiqot markazlarida xotin-qizlar tadbirkorligi fenomenini o'rganish, uni ijtimoiy-madaniy jihatdan rivojlantirib borish, institutsional va tadbirkorlik subyektlarining integratsiyalashuvi hamda milliy parlamentdagi ayollarning global va mintaqaviy ko'rsatkichlariga oid tadqiqotlar amalga oshirilmogda. Shu sababli xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini yuksaltirish, ularning ilmiy, tashkiliy va ijodiy salohiyatidan foydalanish, gender tenglik masalalarni hal qilishga o'zining munosib hissasini qo'shishiga imkon yaratishni yangi bosqichga ko'tarishni taqozo etmoqda. Ayniqsa, xotin-qizlar tadbirkorligini rivojlantirishda iroda va halollik, sog'lom raqobat muhitida tadbirkorlik qilishga imkon yaratish, jamiyatda o'zaro ishonch darajasini oshirish hamda xotin-qizlar tadbirkorligini shaxs, jamiyat va davlat darajasida rivojlantirish yo'nalishlarini takomillashtirish zarurati tobora ortib bormogda.

Mamlakatimizda xotin-qizlarning huquqlari va qonuniy manfaatlariga so'zsiz rioya etilishini ta'minlash, mehnat huquqini kafolatlash va ayollar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash borasida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmogda. "Keyingi yillarda mamlakatimizda xotin-qizlarning huquq-manfaatlarini, gender tenglikni ta'minlash, oila, onalik va bolalikni himoya qilish, ayollar o'rtasida tadbirkorlikni rivojlantirish, ular uchun yangi ish o'rinlari yaratish, mehnat hamda turmush sharoitlarini yaxshilash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylandi. Shu bilan birga, ushbu sohadagi ishlarning holati xotin-qizlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ular bilan maqsadli ishlarni tashkil etish jarayonlari islohotlar shiddatidan ortda qolayotgani ham sezilmogda"¹. Shu bois milliy tafakkur, turmush tarzi hamda islom dinida xotin-qizlar tadbirkorligini rivojlantirish bo'yicha yondashuvlarning tarixiy tajriba, urf-odat, an'ana va qadriyatlarining taraqqiyotga yetaklovchi xususiyatlaridan samarali foydalanishning jamiyatda xotin-qizlar faolligi va qadr-qimmatini oshishidagi, xotin-qizlar tadbirkorligi rivojlanishidagi rolini ijtimoiy-falsafiy jihatdan asoslab berish muhim ahamiyat kasb etmogda.

¹ Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. – Тошкент: "Ўзбекистон", 2021. - Б.247

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 2021 yil 28 maydagi SQ-297-IV-son “2030-yilga qadar O‘zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasini tasdiqlash haqida” qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, 2022 yil 1 martdagi PF-81-son “Oila va xotin-qizlar bilan ishlash, mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2022 yil 7 martdagi PF-87-son “Oila va xotin-qizlarni tizimli qo‘llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2019 yil 7 martdagi PQ-4235-son “Xotin-qizlarning mehnat huquqlari kafolatlarini yanada kuchaytirish va tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlashga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2021 yil 26 martdagi PQ-5040-son “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2022 yil 22 iyuldagi PQ-329-son “Xotin-qizlarni kasb-hunar va tadbirkorlikka o‘qitish tizimini takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” qarorlari hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 22 iyundagi 388-son “Yoshlar va xotin-qizlarni kasb-hunar va tadbirkorlikka o‘qitish dasturlarini samarali amalga oshirish hamda ularning tadbirkorlik faoliyati uchun mikrokreditlar ajratish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2019 yil 20 noyabrdagi 919-son “Xotin-qizlarni ish bilan ta’minlash, ular o‘rtasida tadbirkorlikni rivojlantirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” qarorlari hamda boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni bajarishda dissertasiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” nomli ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Xotin-qizlar va ularning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy hamda ma’rifiy sohalaridagi faolligi qadimgi davrlardan buyon o‘rganib kelingan. Ayollarni demokratiyaga, iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va ma’naviy-madaniy hayotga keng jalb etish, ularda davlat va jamiyat ishlarini boshqarish, yetakchilik, tadbirkorlik va intellektual salohiyatni oshirish muammolarini K.Amundsen, R.Dal, O.Kardavi, D.Mill, A.Piz va B.Piz, G.Ploss kabi olimlar tadqiq etganlar².

² Амундсен К. Женщины и американская демократия: заставить замолчать большинство - М.: Прогресс, 1976, -С.175; Даль Р. О демократии / пер. С англ. Богдановс-кого А. С. Науч. Ред. Алякринский О. А. М. : аспект Пресс, 2000. - 204 с; Кардави, Юсуф. Дозволенное и запретное в исламе. / Пер. М. Саляхетдинова. - М.: Андалус, 2004. С.23; Mill D.S. The subjection of women. – Z., 1969; Алан и Барбара Пиз. Как заставить мужчину слушать, а женщину молчать. Электронная книга. <https://www.litres.ru/book/allan-piz/kak-zastavit-muzhchina-slushat-a-zhensfchinu-molchat-rochemu-my-t-6700164>; Плосс Г. Женщина в естествознании и этнографии. В 2-х томах ; Тип: Гравюра винтажная; 1902; Haber L. Women Pioneers of Science. New York : Harcourt Brace Jovanovich– N.Y, 1979

XX asrda tadbirkorlik faoliyatining nazariy-metodologik jihatlarini shakllantirish va empirik tadqiq etish T.Schulz, G.Bekker, D.Bell ilmiy asarlarida, V.Sombart, Sh.Jid, A.Smit, I.Shumpeter, L.Mizes, I.Kirsner va F.Hayek izlanishlarida nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy va siyosiy hayot subyekti sifatida tadqiq etilgan³.

Tadbirkorlikni rivojlantirishda ayollarning ishtirokini ta'minlashga oid falsafiy, ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy masalalar MDH olimlari A.Babich, T.Bendas, Ye.Vardiman, Ye.I.Kalinina, V.Mejuev, L.Popova, N.Usacheva, N.Xodireva, L.T.Shinelova, V.Fursova, D.S.Kryukov, T.I.Zaslavskaya tomonidan tadqiq etilgan⁴.

O'zbekistonda xotin-qizlar tadbirkorligini rivojlantirishning falsafiy jihatlarini, ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy va huquqiy masalalari A.Erkayev, O.G'aybullayev, Q.Nazarov, B.Aliyev, D.Bobojonova, F.Musayev kabi tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan⁵.

Keyingi yillarda milliy demokratik taraqqiyot xususiyatlari, bozor iqtisodiyoti sharoitida ayollarni ijtimoiy munosabatlarga kengroq jalb etish hamda ularning huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish masalalari O.Nishonova⁶ tomonidan o'rganilgan. Gender muammolari, ijtimoiy hayotda ayol va erkak munosabatlarida

³ Schulz T. Capital Formation bi Edukathion // Journal of Politikal Economu. – 1960, -p. 25.; Гэри С. Беккер Человеческое поведение: экономический подход. Избранные труды по экономической теории. / Пер. с англ. под науч. ред. Р.И. Капелюшникова. <https://id.hse.ru/books/25342826.html>; Белл Д. Грядущее постиндустриальное общество. Эксперимент по социальному прогнозированию. М.: Академия, 1999. - 949 с; Зомбарт В. Буржуа. Этюды по истории развития современного экономического человека. - М.: Ирис-пресс, 2004; Жид Ш., Рист Ш. История экономических учений. – М.: Экономика, 1995. – Гл.1; Смит А. Исследование о природе и причинах богатства народов. М.: Эксмо, 2007.; Шумпетер И. Теория экономического развития. - М.: Директмедиа Пабблишинг, 2008. Франк Хайнеман Найт. Риск, неопределенность и выгода. - М.: Дело, 2003. - 360 с; Людвиг фон Мизес. Человеческая деятельность: Трактат по экономической теории Мизес Л. Человеческая деятельность: Трактат по экономической теории / 2-е испр. изд. — Челябинск: Социум, 2005. — 878 с; Кирцнер И. Конкуренция и предпринимательство / Пер. с английского. изд. проф. А.Н. Романова. - М.: УНИТИ-ДАНА, 2001. - 239 с; Хайек Ф. Дорога в рабство. - М., Перевод с английской Нины Ставиской Под редакцией с примечаниями А. Бабича NINA KARSOV London 1983. - S. 54

⁴ Бабич А.Г. Полигамия. Советы и отзывы. – М.: Ansoq, 2006.; Гендерная психология : учебное пособие / Т.В. Бендас. – Санкт-Петербург : Питер, 2007. – 431 с; Вардиман Е. Е. Женщина в древнем мире. – М.: Наука, 1990. – 334 с. Великие женщины XX века [Текст] / авт.- сост. Г. Б. Богданова, Е. Ю. Кругликова. — М.: Мартин, 2002. — 447 с; Калинина Е.И. Женщины и управление. Формула успеха. - СПб: Питер, 2000; Межуев В.М. Гражданское общество: правовое государство, право. - М.: Юрист, 2002; Попова Л.В. Проблема самосознания одаренных женщин // Вопросы психологии. - М., 1996. - No 2. - S. 31; Усачева Н.А. Женщина: статус, судьба и образ в мировой культуре. - Алматы: Тренажерный зал, 1994; Ходырева Н.В. Женщины в менеджменте // Психология управления. - Санкт-Петербург: Альфа-Питер, 1997; Шинелова Л.Т. Женщина и общество. - М.: Политиздат. 1990; Фурсова В. Социология предпринимательства. Учебно-методическое пособие. Казан. 2017. - С. 22; Крюков Д.С. Социологии предпринимательства. Москва. Московский финансово-промышленный университет «Синергия» 2011. С. 26; Заславская Т.И. Бизнес-слой российского общества: сущность, структура, статус. // Социологические исследования. 1995. Москва, № 3. – С. 3–11;

⁵ Назаров Қ. Жаҳон фалсафаси қомуси. Икки томлик.- Тошкент: Ўзб.файл. миллий жам. нашр, 2019; Erkayev A “Ma’naviyatshunoslik” -T.: “Ma’naviyat“, 2018. 184 b.; Гайбуллаев О. Шахс маънавий камолоти ва эстетик маданият. -Тошкент: Чашма принт, 2008. 160 б; Алиев Б. Шахс маънавий-ахлоқий тарбияси хамиша муҳим.//Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences,2022, vol. 2, №23. - 628-632-б.; Бобожонова Д. Ўзбекистонда ижтимоий-иқтисодий муносабатлар. – Тошкент: Шарқ, 1999; Мусаев Ф. Демократик давлат қуришниқ фалсафий-ҳуқуқий масалалари. – Т.: Ўзбекистон, 2007. – 270 б;

⁶ Нишоновна О.Ж. Ўзбек аёллари этномаданияти: генезиси, оқибатлари, муаммолари: Фалсафа фан. тайинланган. ... дисс. автореф. – Тошкент: 2005

farq mavjudligi, erkaklar shovinizmining saqlanib qolayotgani, tarixiy-madaniy an'analarning ta'siri va ayollarning farzandlari, oilasiga bog'lanib yashashi kabi masalalar V.Alimasov, S.Ahrorova, S.Safaeva, E.Sultonova, N.A.Mustafayeva, Z.Qodirova, J.Yaxshilikov, N.Muxammadiyev maxsus izlanishlarida muhokama etilgan⁷.

Ular qo'llagan ilmiy-metodologik yondashuvlar va muammoga oid chiqargan xulosalar dissertatsiya uchun nazariy-metodologik manba, ko'rsatma bo'lib xizmat qildi. Lekin xotin-qizlar tadbirkorligi ilmiy mohiyatini falsafiy tasniflash, xalqaro tajribadagi ijtimoiy-falsafiy tendensiyalarini asoslash muammolari maxsus o'rganilmaganligini qayd etish lozim. Shu sababli mazkur dissertatsiyada ana shu xususiyatlarni hisobga olgan holda xotin-qizlar tadbirkorligini rivojlantirish, Yangi O'zbekistonda xotin-qizlar tadbirkorligini shaxs, jamiyat va davlat darajasida e'tibor qaratilgan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Buxoro davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq II band "Yangi O'zbekistonda ma'rifatparvar davlat barpo etishning ijtimoiy-falsafiy va ma'naviy-axloqiy asoslarini takomillashtirish muammolari" (2022-2026 yy) tadqiqot yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi xotin-qizlarning jamiyatda faolligini oshirish orqali tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish va rivojlantirishning ijtimoiy xususiyatlarini takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

xotin-qizlar tadbirkorligi tushunchasining ilmiy mohiyatini falsafiy tasnifdagi nazariy-metodologik yondashuvlar doirasida tadqiq etish;

xotin-qizlar tadbirkorligi faoliyati genezisi va evolyusiyasining jamiyat yuksalishidagi roli, xalqaro tajribadagi ijtimoiy-iqtisodiy tendensiyalari asoslash;

Yangi O'zbekistonda xotin-qizlar tadbirkorligini shaxs, jamiyat va davlat darajasida rivojlantirish bo'yicha takliflarni ishlab chiqish;

milliy tafakkur, turmush tarzi hamda islom dinida xotin-qizlar tadbirkorligini rivojlantirish bo'yicha yondashuvlarning o'ziga xos xususiyatlarini asoslash;

xotin-qizlar tadbirkorligi faoliyatini tashkil etish va yanada rivojlantirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

⁷ Alimasov V. Гендер фалсафаси. – Тошкент: Фалсафа ва ҳуқуқ институти, 2008; Ахророва С.А. Ўзбекистонда аёллар ижтимоий фаоллигини ошириш омиллари: Фалсафа фан. номз. ... дис. автореф. – Тошкент, 2005; Сафаева С. Аёллар масаласи: умумижтимоий ва миллий жиҳатлар. – Тошкент: Ўзбекистон, 2003; Султонова Э. Аёл – давлатнинг ривожланиш стратегиясида (глобал муаммо сифатида). – Тошкент: ЖИДУ, 2012; Абдуллаев А. ва бошқалар. Кичик бизнес ва хусусий тadbirkorlik: ташкил этиш, режалаштириш, бошқариш. Тошкент: Фан ва технология. 2005.-Б. 5; Мустафаева Н.А. Маърифатли аёл миллат тарбиячиси // Миллий кадрят ва урф-одатларни сақлашда аёлларнинг ўрни. Илмий-амалий конференция материаллари. – Тошкент, 2018. – Б.268; Қодирова З., Шарипов А., Алмасов В., Каримова Э., Мадаева Ш. Ёшлар ижтимоий фаоллиги ва толерантлигини юксалтиришнинг ижтимоий-фалсафий масалалари. – Тошкент: Фалсава ва ҳуқуқ институти, 2006. -220 б.; Яхшиликков Ж., Мухаммадиев Н. Миллий ғоя: Ўзбекистонни ривожлантириш стратегияси. –Тошкент: Чўлпон, 2018. - 722 б.;

Tadqiqotning obyekti sifatida xotin-qizlarning tadbirkorlik faoliyatini tashkil etishning ijtimoiy-falsafiy asoslari olingan.

Tadqiqotning predmeti xotin-qizlar tadbirkorligini ilmiy-falsafiy tasniflash hamda ijtimoiy tafakkurda shakllangan xotin-qizlar tadbirkorligini rivojlantirish bo'yicha yondashuvlarning o'ziga xos xususiyatlarini asoslashdan iborat.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada analiz va sintez, kompleks yondashuv, mantiqiylik, kuzatuv, qiyosiy tahlil, kontent-analiz, tizimli-funksional yondashuv, sotsiologik tadqiqot va statistik tahlil kabi ilmiy bilish usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

xotin-qizlar tadbirkorligini rivojlantirishda faoliyatini o'rganishning kasbiy komillik, maqsadlilik, ilg'or tajribalarni o'zlashtirishga tayyorlik kabi falsafiy usullarini qo'llash asosida yakka tartibdagi tadbirkorlik, oilaviy tadbirkorlik, yuqori o'rta mulkdor va yirik mulkdor darajalariga tizimli ravishda transformatsiyalashuv jarayonlarining ijtimoiy-antropologik xususiyatlari ochib berilgan;

xotin-qizlar tadbirkorligini rivojlantirishda davr ruhi ta'sirida shakllanuvchi yangi qatlam va sinflarda vatanparvarlik tuyg'usi va milliy o'zlikni anglash mexanizmlari inson kapitaliga investitsiya kiritish, iroda va halollik, sog'lom raqobat muhitida tadbirkorlik qilishga imkon yaratish, jamiyatda o'zaro ishonch darajasini oshirish, insonni har tomonlama rivojlantirish tamoyillari orqali asoslangan;

tadbirkorlik, ishbilarmonlik muhitini rivojlanishini ta'minlashda, Yangi O'zbekistonda xotin-qizlar tadbirkorligini shaxs, jamiyat va davlat darajasida rivojlantirish modeli xotin-qizlar tadbirkorligini rivojlantirishda qisqa va uzoq muddatlarga mo'ljallangan strategiya, mexanizm, ijtimoiy kompetensiyalari takomillashtirilgan;

milliy tafakkur, turmush tarzi hamda islom dinida xotin-qizlar tadbirkorligini rivojlantirish bo'yicha yondashuvlarning tarixiy tajriba, urf-odat, an'ana va qadriyatlarning taraqqiyotga yetaklovchi xususiyatlaridan samarali foydalanishning jamiyatda xotin-qizlar faolligi va qadr-qimmatini oshirishdagi, xotin-qizlar tadbirkorligi rivojlanishidagi, farovonlik va taraqqiyotga erishishdagi hamda ijtimoiy munosabatlarni pozitivlashtirishdagi roli asoslab berilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

xotin-qizlar tadbirkorligini rivojlantirishning ijtimoiy omillari ijtimoiy tadqiqot natijalari asosida takomillashtirish mexanizmlari ilmiy asoslangan;

xotin-qizlar tadbirkorligi, ishbilarmonlik muhitini tubdan yaxshilash, ushbu faoliyatini amalga oshirish uchun eng qulay shart-sharoitlarni yaratish, tadbirkorlikning dinamik rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar ochib berilgan;

xotin-qizlar tadbirkorligini rivojlantirish natijasida ularning sotsiomadaniy qiyofasidagi o'zgarishlar transformatsiyasini miqdoriy va sifatiy tadqiqot metodlari orqali ochib berilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiqot jarayonida qo'llanilgan nazariy qarashlar, tadqiqot usullari va yondashuvlar rasmiy manbalardan olinganligi, nashr etilgan ilmiy maqolalar, respublika va xalqaro konferensiyalarda sinovdan o'tkazilganligi, tadqiqot ishi natijalari bo'yicha berilgan xulosalar asosida, takliflar ishlab chiqilgan bo'lib, tavsiyalar amaliyotda joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati xotin-qizlar tadbirkorligi faoliyatining ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlari, faoliyat motivlarining transformatsiyasi va dinamikasini aniqlashda egallangan bilim va tajribadan falsafa, iqtisod, iqtisodiy sotsiologiya va ijtimoiy siyosat fanlarini ilmiy jihatdan boyitishga, xotin-qizlar tadbirkorligi fenomenini amaliy tadqiqotlar asosida o'rganish va undagi voqeliklarning tadbirkor shaxsining iqtisodiy ongini rivojlantirib borishga bo'lgan harakatlarga asoslanib, mavzu yuzasidan innovatsion loyihalarni tadbirkorlikka yo'naltirishga qaratilgan tadqiqot ishlarini amalga oshirishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati 2022-2026-yillarda xotin-qizlarning mamlakat iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy hayotining barcha jabhalarida faolligini oshirish bo'yicha milliy dasturda belgilangan vazifalarni bajarishda, mahalla va nuroniylarni qo'llab-quvvatlash tizimida, xotin-qizlarning mehnat huquqlarini ta'minlash, ish bilan band bo'lmagan xotin-qizlarni tadbirkorlik faoliyatiga jalb etish va o'zini o'zi band qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirishda, OAV va elektron matbuotda chiqishlar qilish, ijtimoiy madaniy tadbirlar o'tkazishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Xotin-qizlar tadbirkorligini rivojlantirishning ijtimoiy-falsafiy masalalarini tadqiq etish borasida olingan ilmiy natijalar quyidagi faoliyatlarga tadbiiq qilingan:

xotin-qizlar tadbirkorligini rivojlantirishda faoliyatini o'rganishning kasbiy komillik, maqsadlilik, ilg'or tajribalarni o'zlashtirishga tayyorlik kabi falsafiy usullarini qo'llash asosida yakka tartibdagi tadbirkorlik, oilaviy tadbirkorlik, yuqori o'rta mulkdor va yirik mulkdor darajalariga tizimli ravishda transformatsiyalashuv jarayonlarining ijtimoiy-antropologik xususiyatlariga oid ilmiy takliflardan "Tadbirkor ayol" O'zbekiston ishbilarmon ayollar asotsiatsiyasining O'zbekistondagi islohotlar sharoitida tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanayotgan aholi o'rtasida "Islohotlar sharoitida raqamli iqtisodiyotni xotin-qizlar va oilaviy tadbirkorlik faoliyatini tashkil etishga yo'naltirish jamiyatda tadbirkorlikni rivojlantirishga xizmat qiladi" mavzusidagi targ'ibot dasturlarini amalga oshirishda foydalanilgan ("Tadbirkor ayol" O'zbekiston ishbilarmon ayollar asotsiatsiyasi 2022 yil 30-sentabrdagi 181-son ma'lumotnomasi). Natijada, hududlardagi xotin-qizlar tadbirkorligini rivojlantirishda faoliyatini o'rganishning falsafiy usullarini qo'llagan holda yakka tartibdagi tadbirkorlik, oilaviy tadbirkorlik, yuqori o'rta mulkdor va yirik mulkdor darajalariga tizimli ravishda transformatsiyalashuv jarayonlari faoliyatini rivojlantirishga xizmat qilgan;

xotin-qizlar tadbirkorligini rivojlantirishda davr ruhi ta'sirida shakllanuvchi yangi qatlam va sinflarda vatanparvarlik tuyg'usi va milliy o'zlikni anglash mexanizmlari inson kapitaliga investisiya kiritish, iroda va halollik, sog'lom raqobat muhitida tadbirkorlik qilishga imkon yaratish, jamiyatda o'zaro ishonch darajasini oshirish, insonni har tomonlama rivojlantirish tamoyillariga doir taklif va tavsiyalardan Buxoro viloyati teleradiokompaniyasi "Buxoro" telekanalida efirda uzatilgan "Menga so'z bering", "Muvaffaqiyat sirlari", "Sifat mezoni" turkum ko'rsatuvlarining ssenariylarini tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi Buxoro viloyat teleradiokompaniyasining 2022 yil 15 sentyabr 01/237-son ma'lumotnomasi). Natijada, milliy tafakkur, turmush tarzi hamda islom dinida xotin-qizlar tadbirkorligini rivojlantirish bo'yicha yondashuvlarning o'ziga xos xususiyatlari xalqimizning boy milliy madaniy merosga tayangan holda mualliflik yondashuvi asosida ishlab chiqilib, uning mazmuni va ijtimoiy munosabatlarni pozitivlashtirishdagi roli keng targ'ib qilishga xizmat qilgan;

tadbirkorlik, ishbilarmonlik muhitini rivojlanishini ta'minlashda Yangi O'zbekistonda xotin-qizlar tadbirkorligini shaxs, jamiyat va davlat darajasida rivojlantirish modeli xotin-qizlar tadbirkorligini rivojlantirishda qisqa va uzoq muddatlarga mo'ljallangan strategiya, mexanizm, ijtimoiy kompetensiyalari oid ilmiy takliflardan O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligining "Har bir oila – tadbirkor" dasturini amalga oshirish to'g'risida" va "Aholi bandligini ta'minlash borasidagi ishlarni takomillashtirish va samaradorligini oshirish chora-tadbirlari" to'g'risidagi ish rejasining 32-33 va 71-bandlarini amalga oshirishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligining 2022-yil 26-oktabrdagi 01\00-03\15-9699-son ma'lumotnomasi). Natijada, xotin-qizlar tadbirkorligini rivojlantirishda faoliyatini o'rganishning falsafiy usullarini qo'llagan holda yakka tartibdagi tadbirkorlik, yuqori o'rta mulkdor va yirik mulkdor darajalariga tizimli ravishda transformatsiyalashuviga xizmat qilgan;

milliy tafakkur, turmush tarzi hamda islom dinida xotin-qizlar tadbirkorligini rivojlantirish bo'yicha yondashuvlarning tarixiy tajriba, urf-odat, an'ana va qadriyatlarning taraqqiyotga yetaklovchi xususiyatlaridan samarali foydalanishning jamiyatda xotin-qizlar faolligi va qadr-qimmati oshishidagi, xotin-qizlar tadbirkorligi rivojlanishidagi, farovonlik va taraqqiyotga erishishdagi hamda ijtimoiy munosabatlarni pozitivlashtirishdagi rolga oid ilmiy yangilik, nazariy xulosalari, metodologik tavsiyalari hamda amaliy takliflardan O'zbekiston Milliy universitetida bajarilgan PZ-2017093070-raqamli "O'zbekistonda ijtimoiy sheriklikning bugungi kun talablariga mos keladigan modellarini ishlab chiqish" (2021-2022 yy) amaliy tadqiqot loyihasi doirasida foydalanilgan (O'zbekiston Milliy universitetining 2022-yil 15-dekabrda 04\11-8214-son ma'lumotnomasi). Natijada, grant loyihasini yanada takomillashtirishga va keng jamoatchilikka Yangi O'zbekistonda xotin-qizlar tadbirkorligini shaxs, jamiyat va davlat darajasida rivojlantirish bo'yicha takliflarni ishlab chiqishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 5 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi natijalari bo'yicha jami 17 ta ilmiy ish chop etilgan. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan jurnallarda 6 ta (jumladan xorijiy jurnallarda 2 ta, milliy nashrlarda 4 ta) ilmiy maqola e'lon qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, yettita paragraf xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Ishning hajmi 119 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obykti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi "**Xotin-qizlar tadbirkorligini tadqiq etishning ilmiy-nazariy asoslari**" deb nomlanib, mazkur bobda xotin-qizlar tadbirkorligi tushunchasi, uni o'rganishning metodologik asoslari, xotin-qizlar tadbirkorligining vujudga kelishi to'g'risidagi tasavvurlarning rivojlanib borishi aniq manbalar asosida yoritib berilgan. Ayniqsa, O'zbekistondagi islohotlar sharoitida xotin-qizlar tadbirkorligiga berilayotgan e'tibor va uni rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari bilan birgalikda, ijtimoiy omillari ham ko'rsatib berilgan bo'lib, aholi o'rtasida tadbirkorlar qatlamini vujudga keltirish, rivojlantirishda milliy mentalitetga alohida urg'u berilgan. Bu orqali, iqtisodiy farovonlikni ta'minlashda tadbirkorlik faoliyatining o'rni asoslab berilgan.

Yangi O'zbekistonda islohotlar sharoitida oilaviy tadbirkorlikka alohida e'tibor berilgan bo'lib, uning yutuq va kamchiliklari ham asoslab berilgan. Tadqiqotda oilaviy tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish va uni rivojlantirish davlat siyosatining muhim bo'lagiga aylanganligi, oilaviy tadbirkorlik faoliyati mamlakat iqtisodiyotining asosiy ustunlaridan biri bo'lib xizmat qilayotganligi qayd etilgan. Shuningdek, ushbu bobda falsafaning nazariy konsepsiyalarida tadbirkorlikning ijtimoiy asoslari tadqiq etilgan. Tadbirkorlikning ijtimoiy konsepsiyalarini yoritishda eng avvalo, rivojlangan xorijiy ijtimoiy-falsafiy nazariyalarga tayanilgan bo'lib, unda asosan tadbirkorlikning ijtimoiy jihatdan rivojlantirishga o'z hissasini qo'shgan faylasuf olimlarning ijtimoiy-falsafiy nazariyalariga e'tibor qaratib, ular qiyosiy tahlil qilingan.

Tadbirkorlik faoliyatining yuqoridagi tavsiflari ko'p jihatdan bir-birini inkor etmaydi. Chunki, ular tadbirkorlikni turli nuqtai nazardan o'rganadilar:

birinchidan, “tadbirkorlik” tushunchasiga olim va tadqiqotchilar tomonidan turlicha ta’rif va tavsiflar berilgan. “Tadbirkorlik – shaxsning maqsadli (ayni paytdagi tavakkalga asoslangan) faoliyatining ijtimoiy ko‘rinishi bo‘lib, amaldagi huquqiy me’yorlar doirasidan chiqmagan holda o‘z biznesini yaratish bilan bog‘liq mustaqil iqtisodiy faoliyat turidir”, - deb ta’rif keltirilgan.

ikkinchidan, “tadbirkorlik” faoliyatining ijtimoiy omillari tavsifida eng muhim jihat, quyidagidir: tadbirkorlik faoliyati shaxs hayotida bugungi kun va kelajakni uyg‘unlikda inikos etadi. Sababi, faoliyatning bu turi shaxs faoliyatiga motivatsiya beruvchi omil sifatida ko‘zga tashlanadi va uning ertangi kunga bo‘lgan ishonchini yanada orttiradi;

uchinchidan, jamiyat sotsial strukturasi tadbirkorlar qatlamining shakllanishi jamiyatning ijtimoiy ehtiyojlarini qondirish va bu orqali jamiyatda vujudga kelishi mumkin bo‘lgan muammolarining o‘rganishni taqazo etadi. Bu esa jamiyat a’zolarida tadbirkorlik faoliyati to‘g‘risidagi bilimlari yuksak darajada bo‘lishini talab qiladi.

to‘rtinchidan, ayollar tadbirkorligi – ijtimoiylashtirilgan biznesning ma’nosini, ya’ni tadbirkor ayolning o‘z tadbirkorlik faoliyatida jamiyat manfaatlarini va uning rivojlanish ehtiyojlarini xisobga olishga ongli ravishda tayyorligini o‘z ichiga olgan tushunchadir. Qoidaga ko‘ra, ta’lim, tibbiy-ijtimoiy xizmat, ishlab chiqarish soxalarida kichik korxonalar tashkil etish, yangi yo‘nalish – ijtimoiy tadbirkorlikni rivojlantirish tashabbuskorlari aynan xotin-qizlardir. Xotin-qizlar tadbirkorligi deganda, biz bugungi kunda tenglik tamoyillari asosida ayol o‘zida birlashtirish kerak bo‘lgan bir qancha rollarni – ona, xotin va malakali mutaxassis rolini birlashtirishni tushunamiz. Ish dunyosida xech kim ayolning oilada ishlashi va onalikni tabiiy ravishda qondirishga bo‘lgan ehtiyoji uchun nafaqa bermaydi. Bugungi kunda ayollar tadbirkorlik faoliyatining dinamik ritmiga faol integratsiyalashgan va bozor o‘rinlarini muvaffaqiyatli egallagan shaxslardir.

Tadqiqotda yillar davomida tadbirkorlik faoliyati va xotin-qizlar tadbirkorligi rivojlanishi dinamikasi quyidagicha etib tahlil etilgan⁸:

1-jadval.

Tadqiqotda yillar davomida tadbirkorlik faoliyati va xotin-qizlar tadbirkorligi rivojlanishi dinamikasi.

Yillar	Aholi soni	Ayollar soni foizi	Tadbirkorlik su’ektlari soni	Tadbirkor xotin-qizlar foizi
1991- yil	20,6 mln	50,6%	52,8	0,02%
2000-yil	23,5 mln	50,2%	183,0	10,0%
2010-yil	28,5 mln	49,9%	201,7	15,7%
2020- yil	35,2 mln	49,7%	383,901	25,0%
2022- yil	36 mln	49,7%	588,803	28,0%

⁸ Muallifning tahliliy xulosalari asosida. Statistika ma’lumotlari 1991-y., 2000-y., 2010-y., 2020-y., 202 -y.

Dissertatsiyaning **“Xotin-qizlar tadbirkorligini rivojlantirish jamiyat taraqqiyotining muhim omili sifatida”** deb nomlangan ikkinchi bobida bozor munosabatlari sharoitida tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishning ijtimoiy omillarini xorij tajribasi tahlil qilingan bo‘lib, unda XX asrning o‘rtalariga kelib jahon hamjamiyatida muhim ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar ro‘y berishiga tadbirkorlik faoliyatining ta’siri rivojlangan xorijiy mamlakatlar misolida ko‘rib chiqilgan. Chunki, tadbirkorlik faoliyati jahonning rivojlangan mamlakatlarini ijtimoiy-iqtisodiy farovonligini ta’minlashga xizmat qilgan. Shu sababdan, har bir davlat taraqqiyotida tadbirkorlik faoliyatining o‘z o‘rni bo‘lgani uchun faoliyatning bu turini muntazam ravishda qo‘llab-quvvatlaydi.

Xotin-qizlar tadbirkorlik faoliyatini rivojlanishida tadbirkorlik madaniyatini ham o‘rni beqiyosdir. Sababi, tadbirkorlik madaniyati shaxsning keng tarmoqli faoliyatida namoyon bo‘lib, unga shaxslararo munosabatlar, odob, axloq, boshqaruv, halollik va boshqalarni kiritishimiz mumkin. Ushbu munosabatlar shakllanib borgan sari xotin-qizlar jamiyat rivojiga hissi ham oshib boradi.

Dissertatsiyada bugungi kunda jamiyatda xotin-qizlar faolligiga munosabatni o‘rganish maqsadida R.Laykert shkalasi (mazkur shkala dastavval 1912-1931 yillarda R.Laykert tomonidan sinfiy va milliy birliklarni baholash sifatida yuzaga kelgan)dan foydalanib, sotsial munosabatlarni, jumladan erkaklarning aqlli ayollar fenomeniga munosabatini, yoshlarning qariyalarga, talabalarning o‘qishga, tadbirkorlarga, nikohsiz jinsiy munosabatlarga, siyosatga va hokazolarga nisbatan qarashlari, fikr mulohazalari baholangan. Ayollarning farzandga, yoshlarning qariyalarga munosabatini baholashda to‘g‘ridan-to‘g‘ri berilgan savollardan foydalanib bo‘lmaydi, chunki respondent salbiy fikrlarini bemalol bildirsa olmaydi. Shuning uchun ham savollar zamirida yashirin holatlarni bo‘lishiga alohida e’tibor berish lozim.

Tadqiqot jarayonida erkaklarning aqlli ayollarga munosabatini baholash maqsadida ijobiy (+) va salbiy (-) fikrlarni ajratish imkoniyati aniqlangan. Ijobiy ma’nodagi savolda 5 raqami maksimal bahoni, salbiy savolda esa 1 minimal bahoni anglatadi⁹.

Shkala bo‘yicha jami minimal ball 10 ga, jami maksimal ball 50 ga teng. Yaxshi natijalarga erishish avvalo, fikrlarning sifatli, ballarni to‘g‘ri qo‘llashga bog‘liq. Respondentning obyektga munosabatini bir fikr yordamida ham anglash mumkin, ya’ni “Xotining aqli erkakning obro‘yini oshiradi” degan savolga eng ijobiy javobni belgilagan respondent, albatta, yuqori ballni qo‘lga kiritadi va hokazo.

⁹ “Tadbirkor ayol” O‘zbekiston ishbiarmon ayollar assotsiatsiyasi kengash yig‘ilishi 2022-yil 2-fevraldagi 3-sonli qaroriga muvofiq Farg‘ona, Toshkent, Qashqadaryo, Buxoro, Xorazm viloyatlarida 500 nafar respondentlar orasida o‘tkazilgan.

“Erkaklarning aqlli ayollarga munosabati” mavzusidagi tadqiqot natijalari tahlili

T.r.	Fikrlar	Butkul qo‘ shilaman	Qisman qo‘ shilaman	Javob berishga qiynalaman	Qo‘ shilmayman	Butkul qo‘ shilmay man
1.	(-) Aql erkaklarga xos, ayol esa uy-ro‘zg‘or ishlari bilan shug‘ullanishi kerak	1	2	3	4	5
2.	(+) Birinchi uchrashuvdanoq erkakni o‘ziga rom etish uchun ayol aqlli bo‘lishi kerak	5	4	3	2	1
3.	(-) Aqlli ayollar erkaklardan ustun bo‘lishi lozim	1	2	3	4	5
4.	(-) Xotinning eriga nisbatan aqlli bo‘lishi haqiqatga to‘g‘ri kelmaydigan hodisa	1	2	3	4	5
5.	(+) Xotinning aqli erkakning obro‘yini oshiradi	5	4	3	2	1
6.	(+) Aqlli ayol xudoning erkakka bergan oliy tuhfasini	5	4	3	2	1
7.	(-) Aqlli ayol bilan yashash do‘zaxning o‘zi, chunki undan hech nimani yashirishning iloji yo‘q.	1	2	3	4	5
8.	(+) Aql ayol kishini yanada ko‘rkamlashtiradi	5	4	3	2	1
9.	(-) Ayolning aqlliligi bu kasallik, unga qarshi doim kurashish kerak	1	2	3	4	5
10.	(+) Aql ayolni jamiyatda yuksak baholanishidagi yagona ko‘rsatkich	5	4	3	2	1

Dissertant fikricha xotin-qizlar tadbirkorligini rivojlanishi nafaqat ulardagi xoxish, iroda, iqtisodiy zamin, davlatning g‘amxo‘rligi va boshqa shu kabi omillar bilan bap-baravar, hatto ulardan ustun bo‘lgan omil, ya’ni jamiyat a’zolarining, ayniqsa erkakning ayol fenomeniga munosabati turadi. Ilmiy izlanish davomida bu fenomenga alohida e’tibor qaratish lozim. Baholovchi shkalada bugungi kunda erkaklarning ayollarga bo‘lgan 5 ta ijobiy va 5 ta salbiy munosabati shkala ustunlari sifatida saralab olindi. Tadqiqot natijalari keyingi 30 yilda erkaklarning ayollarga bo‘lgan munosabati dinamikasini yaqqol ko‘rish mumkin. Ijobiy tomoni shunda o‘tkazilgan tadqiqotda yillar davomida keng ko‘lamda amalga oshirilgan targ‘ibot, tushuntirish ishlari shaxsning jamiyat, davlat rivojlanishiga to‘g‘ri proparsional ravishda uyg‘unlashuviga olib kelganligini ko‘rish mumkin.

Dissertant rivojlangan mamlakatlar tajribasidan kelib chiqqan holda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikda xotin-qizlar faoliyatini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha quyidagi taklif va mulohazalarni ilgari surgan:

- farovon va to‘kin hayotning milliy tafakkur hamda turmush tarzida ijobiy qadriyat sifatida namoyon bo‘lishi, urf-odat, an’ana va qadriyatlarni saqlab,

jamiyatning o'ziga xos taraqqiyotiga, samarali foyda keltirayotgan xotin-qizlar tadbirkorligiga kerakli imkoniyatlar berib borishni oshirish va jamiyatda ijtimoiy fikrlarni pozitivlashtirishga olib borish;

- Yangi O'zbekistonda xotin-qizlarning kichik biznes va xususiy tadbirkorligini rivojlantirishda innovatsion faoliyatni kuchaytirish maqsadida rivojlangan mamlakatlarning tajribalaridan keng ko'lamda foydalanish lozim. Xususan, Germaniya, Janubiy Koreya, Yaponiya va AQShning bu boradagi tajribalarini o'rganish maqsadga muvofiqdir. Shu bilan birga, ularning qo'llanishida milliy urf-odat va a'analarimizga, jamiyatimizning o'ziga xos taraqqiyotiga putur yetmasligi lozim;

- jamiyatda, xotin-qizlarga bo'lgan munosabat, ularning oila va jamiyat hayotidagi o'rini egallashda ijtimoiy faollikni oshirish, ijtimoiy tadbirkorlik faoliyatini keng rivojlantirish;

- tadbirkor xotin-qizlarni raqamli iqtisodiyotning yangi imkoniyatlaridan foydalanishlari kengaytirish maqsadida o'quv-kurslar tashkil etish.

Dissertatsiyaning **“Yangi O'zbekistonda xotin-qizlar faolligi va tadbirkorligini rivojlantirish imkoniyatlari”** deb nomlangan uchinchi bobida O'zbekistonda xotin-qizlarning jamiyatda o'z o'rinlarini topishlariga ko'maklashish, ularning ijtimoiy faolligini oshirish hamda ularni jamiyatdagi faol qatlam a'zolariga aylantirish masalalari tadqiq etilgan. Bobda bozor munosabatlariga o'tish, xotin-qizlarni xususiy mulk egasiga aylantirish muhim vazifalardan biri sifatida qaralib, ushbu jarayonda obyektiv va subyektiv to'siqlarni bartaraf etish hamda insonlar ongida yangi iqtisodiy munosabatlarni shakllantirishga qaratilgan siyosatni ishlab chiqish zarurati paydo bo'lgani ochib berilgan.

Dissertant ayollarning jamiyatda faolligini oshirish, ularning sotsial paradigmalarini o'zgartirish, xotin-qizlar tadbirkorligini rivojlantirishda asos bo'ladigan falsafiy yondashuvlar, ularni xususiy mulk sub'ektlariga aylantirish orqali ijtimoiy, siyosiy faolligini oshirish masalalarini ilmiy tadqiq qilgan.


Ma'lumki, tizim o'zaro bog'langan va o'zaro munosabatda bo'lgan elementlarni shunday yig'indisiki, unda ular o'rtasidagi ichki aloqalar quvvati tashqi aloqalar quvvatidan katta va xususiyatidan farqli yangi mujassamlangan xususiyatga ega bo'lgan, muayyan maqsadga yo'naltirilgan majmuadir. Element tizimning uzviy qismi bo'lib, u tashqi xususiyatlari nuqtai nazaridan bo'linmaydigan mustaqil obyekt hisoblanadi. Tizimning butunlik hamda tashqi muhit bilan bog'lanishlik kabi o'ziga xos xususiyatlari mavjud.

Xotin-qizlar tadbirkorligini rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlaridan biri bu muayyan tizim asosida mavjud muammolarni hal qilib borish, ayollarning jamiyatdagi nufuzini yanada oshirish, ularni mulk subyektigi aylantirish va ularning o'ziga bo'lgan ishonchini yanada oshirishdan iboratdir. Bunda xotin-qizlarning ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy bilimini yuksaltirish va tadbirkorlik sohasiga bo'lgan qiziqishlarini oshirish ustuvor vazifalardan biridir.

“Erkaklarning aqli ayollarga munosabati” mavzusida o‘tkazilgan tadqiqot yurtimizda amalga oshirilgan islohotlar yurtdoshlarimizning ongi va dunyoqarashini qay darajada ijobiy tomonga o‘zgarganligini yaqqol ko‘rish mumkin.

“Xotinning aqli erkakning obro‘yini oshiradi” degan savolga respondentlarning 50 foizi “Butkul qo‘shilaman”, 33,4 foizi “Qisman qo‘shilaman” degan javobni belgilashgan. Bu jamiyatda aqilli ayolga nisbatan 83 foiz ijobiy munosabatni bildiradi. Shuningdek, respondentlarning 10 foizi “Butkul qo‘shilmayman”, 3 foizi “Qisman qo‘shilmayman”, 3 foizi “Javob berishga qiynalaman” degan javob variantlarini belgilashgan.


Xotinning aqli erkakning obro'yini oshiradi



“Aql ayol kishini yanada ko‘rkamlashtiradi” degan savolga respondentlarning 70 foizi “Butkul qo‘shilaman”, 23,3 foizi “Qisman qo‘shilaman” degan javobni belgilashgan. Erkaklarning 93,3 foiz bu borada ijobiy munosabatda ekanliklari xotin-qizlarning jamiyatda faolliklarini har tomonlama qo‘llab-quvvatlashga tayyor ekanliklarini bildiradi. Shuningdek, respondentlarning 3 foizi “Butkul qo‘shilmayman”, 3 foizi “Qisman qo‘shilmayman” degan javob variantlarini belgilashgan. “Aql erkaklarga xos, ayol esa uy-ro‘zg‘or ishlari bilan shug‘ullanishi kerak” degan savolga respondentlarning 40 foizi “Butkul qo‘shilmayman”, 20 foizi “Qo‘shilmayman” degan javobni belgilashgan. Bu jamiyatda aqilli ayolga nisbatan 60 foiz ijobiy munosabatni bildiradi. Shuningdek, respondentlarning 13,3 foizi “Butkul qo‘shilaman”, 20 foizi “Qisman qo‘shilaman”, 6 foizi “Javob berishga qiynalaman” degan javob variantlarini belgilashgan.

